



# МУҒАЛЛИМ ҲӘМ УЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИЙ

Илимий-методикалық журнал

№ 6.2.1 2023



# МУҒАЛЛИМ ҲӘМ ҮЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИЙ



*Илимий-методикалық журнал*

---

**2023**

**6-2-1сан**

*Озбекстан Республикасы Министрлер Кабинети жасындағы  
Жоқарғы Аттестация Комиссиясы Президиумының  
25.10.2007 жыл (№138) қарапы менен дизимге алынды*

*Қарақалпақстан Баспа сөз ҳәм хабар агентлиги тәрепинен  
2007-жылы 14-февральдан дизимге алынды.  
№01-044-санлы гүйалық берилген.*

Нөкис

**6-2-1сан**

**2023**

*декабрь*

---

*Шолкемлестириүшилдер:*

*Қарақалпақстан Республикасы Халық билимлендіриү Министрлигі,  
ӨЗПИИИ Қарақалпақстан филиалы*

**Редактор:  
А. Тилегенов**

**Редколлегия ағзалары:**

Максет АЙЫМБЕТОВ	Нуржан МАТЧАНОВ
Нағмет АЙЫМБЕТОВ	Сафо МАТЧОН
Байрамбай ОТЕМУРАТОВ	Шукурилло МАРДОНОВ
Ерполат АЛЛАМБЕРГЕНОВ	Бахтиёр РАХИМОВ
Алишер АЛЛАМУРАТОВ	Фуркат РАЖАБОВ
Дилшодхұжа АЙТБАЕВ	Арзы ПАЗЫЛОВ
Тұлқин АЛЛАЁРОВ	Барлықбай ПРЕНОВ
Умида БАҲАДИРОВА	Феруза САПАЕВА
Фарҳад БАБАШЕВ	Қаххор ТУРСУНОВ
Гулзода БОЙМУРОДОВА	Амина ТЕМИРБЕКОВА
Шахло БОТИРОВА	Нурзода ТОШЕВА
Маманазар ДЖУМАЕВ	Тажибай УТЕБАЕВ
Асқар ДЖУМАШЕВ	Амангелди КАМАЛОВ
Алишер ЖУМАНОВ	Ризамат ШОДИЕВ
Гүлнара ЖУМАШЕВА	Зафар ЧОРШАНБИЕВ
Холбой ИБРАГИМОВ	Рустам ФАЙЗУЛЛАЕВ
Умида ИБРАГИМОВА	Дўстназар ХИММАТАЛИЕВ
Меруерт ПАЗЫЛОВА	Умид ХОДЖАМҚУЛОВ
Асқарбай НИЯЗОВ	Гултрухсөр ЭРГАШЕВА
Сабит НУРЖАНОВ	Гавхар ЭШЧАНОВА
Уролбой МИРСАНОВ	

## МАЗМУН ТИЛ ҲЭМ ӘДЕБИЯТ

**Fozilov O.** O'zbek va ingliz tillarida hosila nominalining motivatsion asoslari (perefrazalar misolida).

**Aliyeva Z.** Ornitonim komponentli ingliz va o'zbek idiomalarining tahlili

**Alimova Sh.** Ingliz va o'zbek tillarida pora va ta'magirlik konseptlarining lingvomadaniy va semantik talqini

**Aliyeva Z.** Ingliz va o'zbek tilida ornitonim komponentlari bo'lgan frazeologik birliklar haqida ilmiy qarashlar.

**Eshquvvatova G.** Ingliz va o'zbek tillarida frazeologizmlarning tasnifi food/taom komponentli frazeologik birliklari misolida.

**Марданов А.** Основные понятия логико-семантических моделей

### ПЕДАГОГИКА, ПСИХОЛОГИЯ

**Maxmudova M.** Yan Amos Komenskiyning pedagogik faoliyati va nazariysi

**Jabborov M.** Tarbiyasi qiyin o'quvchilar bilan ishslashning shakl va metodlari.

**Mahkamova Sh.** Innovatsion texnologiyalar asosida musiqa san'ati boshqaruvi

**Xo'jamqulov P., Musayev N., Mumina D.** Umumta'lum maktablari o'quvchilarida ta'limiy-tarbiyaviy immunitetni shakllantirish yo'llari.

**Qayumov J.** O'quvchilarga xonandalik asarlarini erkin va ifodali kuylatish uslublari.

**Musayev N., Xo'jamqulov P.** O'zbek milliy maqom san'atini yosh ijrochilarga o'rgatishda etibor qaratilishi lozim bo'lgan jihatlar.

**Rajabova S.** Kasb ta'limi o'qituvchilarini tayyorlashda Marvelous Designer dasturidan foydalanish metodikasi

**Yunusov O.** Musiqa ta'limida qo'shiq kuylash ijodiy faoliyatga o'rgatish

**Umarov A.** Pedagogik-kasbiy kompetentlik ta'lim jarayonini rivojlantirishning muhim omili sifatida.

**Eshankulova D.** Umumta'lum maktablarida kimyo fanining o'qitilishi va zamonaviy interfaol metodlarning qo'llanilish uslublari.

**Yadgarova D.** Talabalar valeologik madaniyatini rivojlantirishning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish.

**Lafasov B.** Texnologiya fanini o'qitish jarayonida o'quvchilarni muhandislik kasblariga yo'naltirishda "steam – ta'lim".

**Mo'minov K.** Forsayt texnologiyalar asosida talabalarning kreativ kompetensiyalarini rivojlantirishda innovatsion yondashuv

**Qulmatov Z.** Pedagogik tadqiqotlarda ma'lumotlarni qayta ishslash texnologiyasi

**Umirova G.** Texnika oliv ta'lim muassasalari talabalarida rahbarlik qobiliyati va boshqaruvi kompetensiyasini rivojlantirishning tarkibiy qismlari

**Axmedova M.** Mustaqil va o'quv topshiriqlarini metodik takomillashtirishda ona tili fanining vazifalari

**Qosimov Sh.** Bo'lajak o'qituvchining kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish

**Xayitova Sh.** Oilada o'zaro muloqot madaniyatini shakllantirishning pedagogik omillari

**Xoliqova R.** Ona tili ta'limida o'quv topshiriqlarini metodik-pragmatik takomillashtirish

**Muxitdinova M., Syomkina A.** Bo'lajak musiqa o'qituvchisining kasbiy-pedagogik kompetensiyalari

**Maxkamova M.** Pedagogika oliv ta'lim muassasalari talabalarida kasbiy sifatlarni rivojlantirishning pedagogik xususiyatlari

**Muslimov Sh.** Bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarining kasbiy sifatlarini shakllantirish mezonlari

**Xaydarova M.** Ta'lim qonunlari - uni samarali tashkil etish bu ba'zi muhim talablar uchun asosdir.

**Toshmatova Sh, Ernazarov Z.** Bilgiya fanning yangi metodikalari

**Xakimov T.** Sharq allomalaring pedagogik qarashlari asosida oliy ta'lim talabalarining pedagogik tafakkurini oshirishni takomillashtirish.

**Nazirova F.** O'qituvchi faoliyatida pedagogik va kommunikativ qobiliyat

**Irmatova M.** Boshqaruvi psixologiyasining fundamental asoslari

**Xaydarova M.** Yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanishda o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish

**Rasulova M.** O'qituvchilarning loyiha asoslangan o'qitish kompetentligini rivojlantirishning zamonaviy usullari

**Djabbarova N.** Talaba-qizlarda liderlik sifatlarni rivojlantirishning ta'limiy imkoniyatlari

**Haydaraliyeva Z.** O'zbekiston ta'lim tizimini xorijiy tajribalar asosida rivojlantirish

**Rajabov X.** Bo'lajak kimyo o'qituvchilarining axborot-metodik kompetentligini takomillashtirishda raqamli ta'lim texnologiyasidan foydalanish tamoyillari

**Сулаймонов А. Собиров С.** Формирование компетенций, учащихся по иллюстративному рисованию по принципу непрерывности.

**Боймираева Д.** Роль социальная креативность в деятельности будущих образовательных менеджеров

### **МИЛЛИЙ ИДЕЯ ХЭМ РУЎХЫЙЛЫҚ ТИЙКАРЛАРЫ, ТАРИЙХ, ФИЛОСОФИЯ**

**Xakimova B.M.** Gender o'z-o'zini rivojlantirish jarayonida mакtab o'quvchilarining ijodiy qobiliyatlarini o'stirishning nazariy jihatlari

**Sarsenbaev A.** Haqoratning jinoiy-huquqiy tasnifi

### **ФИЗИКА, МАТЕМАТИКА, ИНФОРМАТИКА**

**Мустафоев А.** Бўлажак ўқитувчиларда медиатаълим кўниммаларини шакллантириш зарурати

**Azamxonov B.** Texnik oliv ta'lim muassasalarida virtual kompyuter simulyatorlarining qo'llanilishi va asosiy xususiyatlari

**Umarov A.S.** O'zbektonda badiiy ta'lim klasterini tashkil etish va rivojlantirishning nazariy asoslari

**Siddiqov I.M.** Sun'iy intellektning zamonaviy texnologiyalari

**Siddiqov I.M.** Ta'limda buyumlar internetidan foydalanishning ahamiyati

**Shirinov F.Sh.** Matematik masalalarni yechishda qo'llaniladigan amaliy uskunaviy paketlar

**Suyumov J.** Ta'lim jarayonida o'qitishning innovatsion metodlari: kompyuter imitatsion modellar misolida

**Ahmedova G, Mahmudova O.** Logarifmik transendent tengsizliklarni hisoblash usullari

**Muydinjonov Z, Muydinjonov D.** Digital technologyand learning opportunities

**Muydinjonov Z, Muydinjonov D.** Digital technology competence

### **БАСЛАЎЫШ КЛАСС, МЕКТЕПКЕ ШЕКЕМГИ ТЭРБИЯ**

**Tolipova T.** XXI asr ko'nikmalarini shakllantirish usullari

**Elmurotova D.** Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini innovatsion faoliyatga tayyorlash modeli

**Мустафаева З.** «Совершенствование и развитие творческих способностей детей дошкольного возраста»

**Odilova H.** Xorijiy mamlakatlar tajribasida maktabgacha yoshdag'i bolalarda axborot muhitida ekologik munosabat masalasining qiyosiy tahlili

**Нурбаева.И.** Условия интеллектуального развития старшего дошкольника в процессе формирования математических представлений

**Akmalova M.** Zamonaviy formatsiyadagi maktabgacha ta'lim tashkiloti – Yangi O'zbekiston ijtimoiy muhitida

**Zokirova S, Quziyeva N,** Ta'lim jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilarining tasavvur imkoniyatlarini rivojlantirish

**Xolyigitova B.** Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy qobiliyatlarini badiiy adabiyotlar asosida shakllantirish pedagogik muammo sifatida

**Kasimova D.** Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijodkorlikni shakllantirish jarayonida event texnologiyasidan foydalanish afzalliklari.

**Xovodillayev M.** 9-13 yoshdagi aqli zaif bolalarda nutqni shakllantirish texnologiyalari.

**O'rroqova Sh.** Boshlang'ich sinf o'quvchilarini dunyoqarashini tabiiy fanlar misolida intellektual rivojlantirish metodikasi

**Saydillayeva M.** Maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi tarbiyalanuvchilar faoliyatini rivojlantirishning loyihalashtirish xususiyatlari.

**Файзиева У.** Эшитишида муаммолари бўлган болалардаги нуткнинг ривожланиш даражаси

**Safarova Sh.** Boshlang'ich sinflarda geometriya materiallarini o'rgatishning didaktik ta'minoti

**Yo'ldoshev O.** Boshlang'ich ta'lim samaradorligini oshirishda raqamli texnologiyalarning o'rni

**Kubayeva M.** Maktabgacha yoshdagi bolalarni ekologik tarbiyalashning nazariy asoslari

**Xaydarov B.** Boshlang'ich sinf o'quvchilarida umumrivojlantiruvchi mashqlarni mustaqil bajara olish ko'nikmalarini shakllantirish usullari

**Hamidova G.** Maktabgacha yoshdagi bolalar ijodiy va intellektual qobiliyatini rivojlantirish orqali innovatsion tafakkurini shakllantirish

### **ТАСВИРИЙ САЪНАТ**

**Султанов X.** Кластер усули орқали тасвирий санъат таълимини интеграциялаш имкониятлари

**Bekqulov Q.** Muhandislik grafikasi talabalarining mustaqil ijodiy ish faoliyatini tashkil etishning mazmuni.

**Talipov N.** Naqqoshlik san'atida kompositsiyaning ahamiyati

**Malikov K.** Texnik oliy o'quv yurtlarida muhandislik va kompyuter grafikasi fanini o'qitishda talabalarni to'garak mashg'ulotlariga qiziqtirish orqali kasbga bo'lgan ijodkorligini shakillantirish.

**Fayziyeva S.** Muhandislik grafikasi fanlarini o'qitishda gumanitar, ijodiy va umummadaniy yo'nalishlarda o'qitish metodikasini takomillashtirish.

### **ФИЗИКАЛЫҚ ТЭРБИЯ ҲӨМ СПОРТ**

**Ochilov R.** Turli o'yin ampliasiga ega yosh futbolchilarni jismoniy tayyorgarligini rivojlantirish yo'llari

# ЭШИТИШИДА МУАММОЛАРИ БЎЛГАН БОЛАЛАРДАГИ НУТҚНИНГ РИВОЖЛАНИШ ДАРАЖАСИ

Файзиева У.Ю.

Чирчиқ давлат педагогика университети

педагогика фанлари номзоди, доцент

Куранбаева О.Х.

Чирчиқ давлат педагогика университети магистранти

**Таянч сўзлар:** нутқ, муаммо, карлик, заиф эшитувчи, ташҳис, тасниф.

**Ключевые слова:** речь, проблема, глухота, нарушение слуха, диагностика, классификация.

**Key words:** speech, problem, deafness, hearing impaired, diagnosis, classification.

Эшитиш имконияти инсон ҳаётида энг муҳим коммуникатив восита эканлиги, эшитиш имконияти орқалигина инсон нутқий мулоқотни эгаллаши мумкинлигини ҳисобга олсак, эшитишида муаммолари бўлган болаларнинг нутқни эгаллаш, таълим олиш жараёнининг нақадар мураккаблигини тасаввур қилишимиз мумкин.

Аслида эшитмайдиган болаларни соғлом ва эшитадиганлар жамиятига интеграция қилиш, коммуникатив восита сифатида сўзлашув нутқини ўргатиш ва оғзаки нутқ орқали таълим бериш, сурдопедагогиканинг энг муҳим вазифаси бўлиб, уларга таълим бериш мазмунининг бош мезони сифатида қабул қилинган. Чунки эшитишида муаммолари бўлган болаларнинг ижтимоийлашувига, жамиятда ўз ўрнини топиб, ижимоий эҳтиёжини ўзи қондириш имкониятларига соғлом инсонлар жамиятида ва улар ёрдамидагина эришиш мумкин.

Бу имкониятга эса улар нутқий мулоқот, ўқиш, ёзиш, ўз фикрини саводли ва асосли баён қилиш орқалигина эга бўлишлари мумкин.

**Карлик** – эшитишининг турғун йўқолиши бўлиб, унда мустақил ҳолда нуткни эгаллаш, ҳаттоқи қулоққа яқин бўлган масофада бўлган нутқни аниқ идрок этиш имконияти бўлмайди. Тотал (тўлик) карлик жуда кам учрайди. Кўпинча карлиқда баланд нонутқий товушлар, қулоқ супрасига яқин масофадаги баъзи нутқий товушларни идрок этиш даражасида бўлган эшитиши қолдиқлари сакланиб қолади. Аудиометр текшируви эшитишининг 80 дБ.дан юқори даражада йўқолганинглигини кўрсатади.

**Заиф эшитувчилик** – эшитишининг турғун пасайиши бўлиб, унда ушбу эшитиш қолдиғи асосида нутқий захирани минимал ҳолатда мустақил равишда эгаллаш, мурожаат этилган нуткни қулоқ супрасига яқин масофада идрок этиш имконияти бўлади. Аудиометрик текшируви эшитишининг 70 дБгача пасайиши заиф эшитиши ҳисобланади.

Эшитишида муаммолари бўлган боладаги нутқининг ривожланиш даражаси ва тавсифи қатор сабаблар билан боғлиқ бўлиб, Р.М. Боскис бу борада 4 та омилни ажратади:

1. Эшитишингбузилиш даражаси.

2. Эшитиши муммосининг келиб чиқиш вақти.

3. Эшитиши муммоси юзага келгандан сўнг бола учун яратилган коррекцион педагогик шароит.

4. Боланинг индивидуал (ўзига хос)хусусиятлари.

Эшитиши қобилиятлари бир хил болаларнинг нутқий ривожланишлари турлича кўринишга эга бўлиши кузатилади. Р.М. Боскис ҳар икки гуруҳдаги эшитишида муаммолари бўлган болаларни ўз навбатида яна иккитадан гурухга бўлади:

Карлар:

1. Туғма ёки эрта кар бўлиб, нутқи бўлмаган карлар.

2. Кеч кар бўлиб, нутқи сақланган карлар.

Заиф эшитувчилар:

1. Нутқида қисман четга чиқишилари (нутқининг грамматик тузумида баъзи четга чиқишилари, яъни қўшимчаларни нотўғри қўллаш ёки тушириб қолдириш, баъзан талафуз муаммолари) бўлган заиф эшитувчилар;

2. Чукур нутқий муаммолари бўлган, яъни луғат захираси ўта чегараланган (нутқи қисқа, нотўлиқ сўзлардан, грамматик тузуми сўз-гапдан, бўғин-сўзлар қаторидан иборат) заиф эшитувчилар.

Шунга кўра, Р.М.Боскис ва С.А. Зиков эшитмайдиганлар таълим-тарбияси уларнинг нуқсонларига мослаб эмас, балки ушбу нуқсонни енгиш ёки заифлаштиришга қаратилган шароитларни яратишга йўналтирилишини таъкидлайди (С.А. Зиков 1938-1970 й.й.).

Эшитишида муаммолари бўлган болаларнинг таълим-тарбиясида нутқни шакллантириш жараёни муҳим ўрин эгаллади. Тилнинг луғат захираси, унинг грамматик қонуниятларини эгаллаш, тилни мулоқат воситаси сифатида ўзлаштириш ушбу тоифа шахсларнинг ижтимоий ҳаётга уйғунлашувлари ва шахсий ҳаётларида ўз ўринларини топишларидаги муаммоларни бартараф этишга хизмат қилади.

Ташхис марказларига бола маҳсус сурдологоик текширувдан ўтказилиб, якуний хулоса билан келади. Ташхис маркази ходимлари ҳар бир болаларнинг сурдологоик хулосасига биноан тиббий педагогик-психологик комиссияга йўллайдилар. ТППКда бола чукур психологик-педагогик жиҳатдан ўрганилади ва шундан сўнг, якуний хулоса чиқарилиб, эшитиш имкониятига баҳо берилади ҳамда якуний ташхис қўйилиб, таълим тури белгиланади.

Педагогик тасниф. Эшитишида нуқсони бўлган болаларни ўқитиш амалиётини ўрганиш шуни кўрсатадики, эшитишида нуқсони бўлган ҳар хил гурухдаги болаларни биргаликда ўқитиш яхши натижалар бермайди.

Россиянинг қатор маҳсус мактаб-интернатлари фаолиятида эшитишида нуқсони бўлган болаларнинг дифференциал илмий тадқиқоти ушбу мактаб ўқувчиларини ўрганиш, шуни кўрсатдики, бу мактабларда ўқитиш ишлари асосан бирламчи нуқсони ҳисобга олинган холдагина олиб бориши кузатиши аниқланган.

Ўрганилган тадқиқот натижаси бўйича, ушбу тоифа болаларининг ривожланишида фақаттинга бирламчи нуқсоннинг холати асосий роль ўйнамайди, балки қатор омиллар муҳим бўлиб майдонга чиқади.

Биринчи таснифлаш 16-асрларга тўғри келиб, унда Италия олими Д.Кардано карларни З гуруҳга ажратган. Бунда у карликнинг вужудга келиш вақтига боғлиқлиги ва нутқий ривожланиш даражасига асосланган:

1. Туғма карлар;
2. Эрта кар бўлганлар (нутқи ривожлангунга қадар):
3. Кеч кар бўлганлар (нутқи сақланиб қолганлар).

18-асрда француз педагоги Р.А. Сикар эшитиш нуқсони ҳар хил бўлган болаларни гурухларга бўлишни ва уларни алоҳида-алоҳида ўқитишни таклиф қилган.

19-асрнинг биринчи ярмида рус сурдопедагоги В.И. Флерি кар ва заиф эшитувчи ўқувчиларни, кеч кар бўлиб қолганлар ва заиф эшитувчи болаларни алоҳида ўқитишни таклиф этган.

Париждаги кар ва заиф эшитувчи ўқувчиларни ўрганиш бўйича инситути шифокори Ж.Итар карларни, товушлар ва нутқни эшитишмекониятига қараб беш гуруҳга ажратган:

1. Юқори частотали овоздаги нутқ ва товушларни қулоғининг яқинида эшитувчилар;
2. Унли ва ундошларни ажратувчилар;
3. Айрим унли ва ундошларни ажратувчилар;
4. Нутқни эшитмайдиган лекин фақат юқори частотали овоз ва товушларни эшитувчилар;
5. Умуман эшитмайдиганлар.

Бироқ, кар болаларнинг табақалаштирилиши, фақат эшитиш қобилиятини турли даражада йуқотганларни биргаликда ўқитиш ижобий натижалар бермаганлиги аниқланган.

19-асрнинг иккинчи ярмида Петербургдаги кар ва заиф эшитувчи ўқувчилар билим юритида Я.Т.Спешнев иккита эшитишида муаммолари бўлган болалар таълими учун алоҳида бўлинма тузади:

- турли даражадаги нутқий имконияти бўлган кар болалар учун;
- имо-ишора асосида мулоқот қилувчилар учун.

Я.Т.Спешнев томонидан эшитишида нуқсони бўлган болаларнинг нутқ имкониятини яхшилаш бўйича табақалаштирилади. Натижада асосий нуқсон даражаси хисобга олинмайди, бундай ҳол эса уларни ўқитиш мобайнида керакли самара бермаган. Шу сабабли эшитишида муаммолари бўлган

болаларнинг таснифини илмий текшириш зарурати вужудга келди.

Л.В. Нейман илк ёшидан эшитиш қобилияти бузилган болаларни ўрганиш тавсифини яратади.

Эшитиш нуқсонини таснифлаш (табақалаштириш) эшитишида муаммолари бўлган болалар таълим тарбиясини тўғри ташкил қилишга хизмат қилади.

Эшитиш нуқсонини таснифлаш (синфлаштириш) икки турдан, яъни тиббий тасниф ва педагогик таснифдан иборат.

**Тиббий тасниф** (Л.В. Нейман бўйича).

Карлар:

- I гурух – Энг паст частоталарни қабул қилиш (125-250 Гц.);
- II гурух- 500 Гцгача частоталарни қабул қилиш;
- III гурух- паст ва ўрта частоталарни қабул қилиш (1000 Гцгача)
- IV гурух- 2000 Гцгача частоталарни қабул қилиш.

Заиф эшитувчилар:

1-даражада. Эшитиши 50 Дб.гача йўқотиш. Бундай бола 1м.дан ортиқ масофадаги нутқни фарқлайди.

2-даражада. Эшитиши 50-70 Дб.гача йўқотиш. Бундай бола 1м.гача масофадаги нутқни фарқ қиласи.

3-даражада. Эшитиши 70 Дб.дан юқори йўқотиш. Бундай бола қулоқ олдида ва қулоқ супрасига айтилган нутқни ҳам фарқлаши қийин.

Эшитишида муаммолари бўлган боланинг эшитиш қобилиятини ривожлантириш ва эшитиш орқали сўзлашув нутқни ўргатиш, тўғри талафуз кўнимкамаларини шаклланиши, эгаллаши асосан уларнинг эшитиш қобилиятининг пасайиш даражасини тўғри аниqlаниши яъни тўғри ташхис қилинишига боғлик.

Хозирги кунда эшитишнинг пасайиш даражаси аниqlanganч шунга мос индивидуал эшитиш аппаратлар танланиб, аудиометрик текширув ва қулоқнинг ўзи билан эшитиш имкониятига мосланади.

### **Адабиётлар**

1. А. Авлоний. Туркий гулистон ёхуд ахлоқ. – Тошкент, 1992 й.
2. А.Г.Зикеев. Обучение учащихся подготовительного, 1-1V классов школы глухих. Москва, 1984 г.
3. Сурдопедагогика. Под ред. Е.Г.Речицкой. – М.: Владос, 2004.
4. Файзиева У.Ю. Эшитишида муаммолари бўлган болалар инклузив таълими – А.Авлоний номли ХТҲҚТМОМИ, БМТ ЮНИСЕФ халқаро болалар жамғармаси.
5. Файзиева У.Ю. Мактабгача ёшдаги эшитишида мауммоси бўлган болалар таълими. – Тошкент. «ILM ZIYO», 2006.

### **REZYUME**

Мазкур мақолада эшитишида муаммолари бўлган болалардаги нуткнинг ривожланиш даражаси, бу жараённи амалга ошириш механизми, тартиби, босқичлари тадқик қилинган. мақоланинг асосий мазмуни инклузив таълимни ташкил қилиш шарт шароитлари, самарали олиб бориш омилларига бағищланади. Замонавий мактабда таълим ва жамият алоқадорлиги: муаммо ва ечимлар

## РЕЗЮМЕ

В данной статье изучен уровень речевого развития детей с нарушениями слуха, механизм, порядок и этапы этого процесса. Основное содержание статьи посвящено условиям, необходимым для организации инклюзивного образования, факторам его эффективной реализации. Образование и общественные связи в современной школе: проблемы и решения

## SUMMARY

In this article, the level of speech development in children with hearing problems, the mechanism, procedure, and stages of this process are studied. the main content of the article is devoted to the conditions necessary for the organization of inclusive education, the factors of its effective implementation. Education and community connection in modern school: problems and solutions

### BOSHLANG'ICH SINFLARDA GEOMETRIYA MATERIALLARINI O'RGATISHNING DIDAKTIK TA'MINOTI

Safarova Sh.

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti magistranti

**Tayanch so‘zlar;** Didaktik materiallar, Geometriya ta'limi, Boshlang'ich maktab, O'qitish, materiallar, Amaliy ta'lim, Moddiy manbalar, Geometrik shakllar, Fazoviy fikrlash, O'quv rejasini moslashtirish,

**Ключевые слова;** Дидактические материалы, Обучение геометрии, Начальная школа, Обучение, материалы, Практическое обучение, Материальные ресурсы, Геометрические фигуры, Пространственное мышление, Согласование учебной программы.

**Key words;** Didactic materials, Geometry education, Primary school, Teaching, materials, Hands-on learning, Tangible resources, Geometric shapes, Spatial reasoning, Curriculum alignment.

Kirish:

Geometriya - bu matematikaning asosiy bo'limi bo'lib, u shakllar, o'lchamlar va fazoviy konfiguratsiyalarning xususiyatlari va munosabatlarini o'rganadi. Bu muammoni hal qilish, fazoviy fikrlash va mantiqiy fikrlashni rivojlantirish orqali bolaning matematik ta'limida muhim rol o'ynaydi. Boshlang'ich maktab darajasida geometrik tushunchalarni joriy etish kuchli matematik poydevor yaratish uchun juda muhimdir. Biroq, yosh o'quvchilarga geometriyani o'rgatish uning mavhum tabiatini tufayli qiyin bo'lishi mumkin. Ushbu muammoni hal qilish va samarali o'rganishni osonlashtirish uchun boshlang'ich geometriya sinflarida o'quv materiallarini didaktik ta'minlash muhim ahamiyatga ega.

Didaktik materiallarning ahamiyati:

Boshlang'ich sinf o'quvchilariga geometriyani o'rgatishda didaktik materiallarning ahamiyatini behisob aytib bo'lmaydi. Ushbu materiallar yanada samarali va qiziqarli o'rganish tajribasiga hissa qo'shadigan ko'plab afzalliklarni taqdim etadi:

Konkret tushuncha: Didaktik materiallarning asosiy afzalliklaridan biri shundaki, ular o'quvchilarga mavhum geometrik tushunchalarni aniq, aniq tasvirlab beradi. Yosh bolalar ko'pincha faqat og'zaki yoki ramziy tushuntirishlar orqali geometrik shakllar va xususiyatlarning nuanslarini tushunish uchun kurashadilar. Didaktik materiallar, masalan, jismoniy geometrik shakllar o'quvchilarga ushbu tushunchalarni to'g'ridan-to'g'ri ushlab turish, manipulyatsiya qilish va o'zaro ta'sir qilish imkonini beradi. Ushbu amaliy tajriba geometriyani chuqurroq va intuitivroq tushunishga yordam beradi.